www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISHDA O'QUVCHILARNING SOHAGA OID O'QUV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Sunnat Aslanovich Shovdirov
Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbekiston
"Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasi" v/b. dotsenti. p.f.f.d. (PhD)
sovdirovsunnat@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarda tasviriy savodxonlikka oid o'quv kompetensiyalarini shakllantirish tizimini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari, uning tarkibiy qismlari bo'lgan o'quv komponentlari, pedagogik qobiliyat va pedagogik texnika turlari haqida ma'lumot keltirilgan. Shuningdek, o'quvchilarda tasviriy savodxonlikka oid o'quv kompetensiyalarini shakllantirish tizimini takomillashtirish borasida tavsiyalar berilgan.
Kalit so'zlar: Tasviriy savodxonlikka oid o'quv kompetensiyalari, tasviriy san'at asarlarini badiiy qiymati, san'at asarlarining badiiy ta'sirchanligi, badiiy meros, tasviriy san'atning tur va janrlari, borliqdagi dunyo obrazlari, ranglarning xilma-xilli, badiiy tasviriy obrazlar tizimi.

Jahonda sodir bo'layotgan taraqqiyot jarayonlarining yetakchi omillaridan biri, barcha sohalarda yuksak kompetensiyaga ega mutaxassislarni tayyorlash bilan bog'liq kechadi. Kompetensiyalarning dastlabki zamini sifatida, birinchi navbatda o'quv kompetensiyalari e'tirof etiladi. O'zbekiston badiiy pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri – yoshlarning milliy va jahon madaniy qadriyatlari, shuningdek, tasviriy savodxonlikka oid o'quv kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirib borish orqali ularni kelajak hayotlarida kreativ fikrlay oladigan yuqori darajadagi kompetensiyaga ega yetuk kadrlar sifatida tayyorlash bugungi kunda muhim dolzarblik kasb etadi.

O'quvchilarning tasviriy savodxonlikka oid o'quv kompetensiyalari tizimida ularning sohaga oid o'zlashtirgan ham nazariy ham amaliy bilimlari alohida e'tiborga molik [3]. Aynan shu jihatlarni inobatga holda o'quvchilarda tasviriy savodxonlikka oid o'quv kompetensiyalarni shakllantirishni metodik tizimini takomillashtirishga ustuvor tarzda qaralishi lozimligini anglatadi. Zero, tasviriy san'at asarlarini badiiy qiymatini to'g'ri baholash, undan estetik zavq ola bilish tasviriy savodxonlik kompetensiyasini muhim komponentlaridan biri hisoblanadi. Chunki, san'at asarlarining badiiy ta'sirchanligi, mazmunining to'laligi, estetik tasviriy ifodaliligi, shaklining realliligi hamda uni muallif g'oyasiga mosligi, o'quvchilarda ma'naviy, estitek-ruhiy, ijtimoiy-psixologik ahamiyatga molik bo'lgan ko'plab g'oyalarni jamlashga asos bo'ladi. "Tasviriy san'at" o'quv fanining "San'atshunoslik asoslari" blokida aynan shu turkumdagi bilimlarni o'zlashtirish nazarda tutiladi.

O'lmas tasviriy san'at qadriyatlari bevosita – har qanday davr sinovlaridan takror va takror o'tgan tasviriy-badiiy meroslarimiz, san'at hodisalari o'zida mana shunday katta salohiyatni jamlaganligini ko'ramiz [4]. Bu esa o'z navbatida keyingi avlodlar bilan "muloqot" qilish, ularga ta'sir ko'rsatish imkoniyatini saqlab qolish, ko'p asrlar davomida yashash huquqini beradi. Shuning uchun ham tasviriy san'at darslarida ham tarixiy ham zamonaviy tasviriy san'at asarlarini chuqur tushinishni va savodli o'rganishni taqozo etadi.

Borliq va tasviriy-badiiy masalalarni ko'rsatib berish usul va yo'llari tasviriy san'atning tur va janrlari hamda ularning xususiyatlarini belgilab beradi. Masalan:

– rangtasvirda – borliqdagi dunyo obrazlari, betakror ranglarning xilma-xilliga va boyligi bilan;

– grafikada – rasm chiziqlari, shtrix yo'nalishlari va rang tuslari orqali;

– haykaltaroshlikda esa – plastik obrazlar orqali.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

San’atning tasviriy-ifodaviyligi – ushbu san’at vositalari bilan borliq hodisalarini aks ettirishdir [5]. Badiiy obrazlarni yaratishning so‘zsiz sharti sifatida unga tasviriylik va ma’nodorlik xosdir. Tasviriy-ifodaviylik asosida ushbu san’atda asarning emotsional-tasviriylik va g‘oyaviy-mazmunli imkoniyatlari tashkil topadi.

Demak, tasviriy san’at fanini o‘qitishda o‘quvchilarning tasviriy savodxonlikka oid o‘quv kompetensiyalarini shakllantirishning tizimini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari bevosita tasviriy san’at asarlarini kommunikativ funksiyalarini ham e’tiborga olishni taqozo etadi.

Tasviriy san’at o‘ziga xos ko‘plab funksiyalarga ega. Badiiy qimmatli san’atning – tasviriy san’atning o‘ziga xos vazifasi – insonning estetik ehtiyojlarini qoniqtirish, unga quvonch bag‘ishlash, rohat bag‘ishlash, ma’naviy boyitish, estetik faoliyatga xohish uyg‘otishdan ham iborat. Bundan tashqari yana, idrok etish vazifasi va albatta, uning tarbiyaviy vazifasini ham inobatga olish zarur.

Tasviriy san’at tur va janrlariga doir yaratilgan, badiiy qimmatli asarlar bilan “muloqotda” bo‘lish jarayonida tasviriy-badiiy qadriyatlarni o‘zlashtirish sodir bo‘ladi [6]. Estetik qadriyatli yo‘nalishlar orqali bevosita estetik fikrlash ham shakllanadi. Bularning hammasi uni idrok etuvchi inson shaxsiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadi hamda ta’sirlantiradi, maqsadga muvofiq tarzda yo‘naltirilgan va boshqariladigan badiiy-estetik qabul qilish jarayonida, ayniqsa, tasviriy, amaliy va me’morchilik san’at asarlari haqida muloqotlar, suhbatlar dialoglar natijasida ijobiy kechadi. Tasviriy san’at asarlari vositasida amalga oshiriladigan kommunikativ faoliyatda quyidagilar sodir bo‘ladi:

– badiiy axborot olish, xususan, badiiy tasviriy obrazlar tizimi yordamida badiiy axborotning o‘ziga xos tomonlari ochib beriladi;

– tasviriy san’atning ifodaviy tili yordamida tasvirlanayotgan ob’ektlarning mohiyati ochib beriladi;

– mualliflarning dunyoqarashi va shaxsi, rassomning mahorati, uning ob’ekt va hodisalarga nisbatan estetik munosabati ifodalanadi.

Bugungi yangi O‘zbekiston sharoitida respublikamizda amalga oshirilayotgan qator islohotlar boshqa fanlarni o‘qitish barobarida tasviriy san’at o‘quv dasturi va predmetini modernizatsiya qilishni ham taqozo etadi [7]. Darslarni optimal darajada loyihalash, ularning monitoringini olib borish ko‘p jihatdan fanlarni o‘qitishda, shu jumladan, “Tasviriy san’at” o‘quv fanini o‘qitishni ham takomillashtirishga olib keladi [8]. Takomillashtirish tadbirlarining asosiy maqsadi, shubhasiz, o‘quvchilarda sohaga oid o‘quv kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltiriladi [9]. Bu nazariy va amaliy xarakter kasb etivchi badiiy pedagogik jarayon kompleks yondashishni taqozo etib, kompleks yondashuv mazmunan va mohiyatan bir-biriga bog‘liq bo‘lib, mantiqiylik prinsipiga amal qilinadi. Faqat shu omil bo‘yicha muayyan o‘quvchilarning tasviriy savodxonlikka oid o‘quv kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishni didaktik imkoniyatlarini tavfsiflaydi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerak-ki, “Tasviriy san’at” darslarida o‘quvchilar bilan tasviriy, amaliy va me’morchilik san’ati asarlarini muhokama qilish o‘quvchilar shaxsiga yo‘naltirilgan ta’sir ko‘rsatish, ushbu holatda, badiiy tasviriy ijodiy qadriyatlarga bo‘lgan qiziqishlarini faollashtirish va natijada ularning tasviriy savodxonligiga oid o‘quv kompetensiyalarini shakllantirish muhimdir. SHu maqsaddan kelib chiqib quyidagilarga alohida e’tibor qaratilishi lozim:

- o‘quvchilarning maqsad sari dadil yo‘naltiriladigan mustaqil idrok eta olish faoliyatlari, qiziqishlarini imkon qadar faollashtirish zarur;
- ularni yuksak darajali badiiy tasviriy san’at asarlariga “jalb etish” darkor;
- o‘quvchilarda tasviriy savodxonlikka oid o‘quv kompetensiyalarini mukammal o‘zlashtirishlariga nisbatan qiziqish o‘yg‘otish muhim;

- tasviriy savodxonlikka oid turli tasvirlash texnika va vositalarida ishlash (rang, akvarel, tush, guash, tempera bilan ishlash va boshqalar) kompetensiyalarini shakllantirish, tasviriy-badiiy san'at asarlarni o'rganishlari natijasida estetik ahamiyatga molik va badiiy qimmatga ega bo'lgan tasviriy san'atning nodir asarlarini baholash kompetensiyalari shakllanadi.

Adabiyotlar:

1. Sulaymonov A., Abdullayev N. Tasviriy san'at. 7-sinf o'quvchilari uchun darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2014. – 80 b.
2. Hasanov R. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. – T.: "Fan", 2004. – 106 b.
3. Шавдиров, С. А. (2017). Подготовка будущих учителей к исследовательской деятельности. Педагогическое образование и наука, (2), 109-110.
4. Shovdirov, S. BB Boymetov Methods of Organizing Practical and Theoretical Classes for Students in The Process of Teaching Fine Arts International Journal on Integrated Education.
5. X. Ibraimov, & S. Shovdirov (2023). THEORETICAL PRINCIPLES OF THE FORMATION OF STUDY COMPETENCIES REGARDING ART LITERACY IN STUDENTS. Science and innovation, 2 (B10), 192-198. doi: 10.5281/zenodo.10022427
6. Sunnat Aslanovich Shovdirov (2023). TASVIRIY SAN'AT TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING O'QUV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK TALABLARI. Science and innovation, 2 (Special Issue 13), 527-533. doi: 10.5281/zenodo.10139769
7. Шавдиров С. А. (2017). Ўқувчиларда тасвирий саводхонликка оид ўқув компетенцияларини шакллантиришнинг педагогик- психологик жиҳатлари. Современное образование (Узбекистан), (6), 15-21.
8. Shavdirov, S. A. (2017). Selection Criteria of Training Methods in Design Fine Arts Lessons. Eastern European Scientific Journal, (1).
9. Шавдиров, С. А. (2018). ОСОБЕННОСТИ ПОДБОРА ЦВЕТА В ОБУЧЕНИИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ И ПРИКЛАДНОМУ ИСКУССТВУ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION (pp. 84-85).
10. Sadiev S. DEVELOPING STUDENTS'ARTISTIC LITERACY SKILLS IN EXTRA-CURRICULUM ACTIVITIES //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B9. – С. 106-108.
11. Niyazovish G. I. WAYS OF USE OF MODERN INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN FINE ARTS CLASSES AND THROUGH THE IMPROVEMENT OF IDEAS OF NATIONAL INDEPENDENCE TO STUDENTS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 9. – №. 12. – С. 234-237.
12. Choriyevich J.S. The role of composition in increasing the spatial imagination of students and students //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 15-17.
13. Kulmuratov N. R. et al. VARIOUS ISSUES IN THE FIELD OF SETTING NONSTATIONARY DYNAMIC PROBLEMS AND ANALYZING THE WAVE STRESS STATE OF DEFORMABLE MEDIA //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 9. – С. 365-369.
14. Usmonovna A. Z. THE USE OF CLASSIC STYLES IN MODERN FASHION //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. A4. – С. 263-264.
15. Xamidova G.X. CHIZMACHILIK FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH: Gulmira Xamidovna Xamidova, Navoiy davlat pedagogika instituti San'atshunoslik fakul'teti, Tasviriy sanat va muhandislik grafukasi kafedrasi oqituvchi //Научно-практическая конференция. – 2022.